

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MA'NAVIY-AXLOQIY
TARBIYALASHDA TARBIYACHINING O'RNI****Usarova Muborak Xabibulla qizi***Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti**Urgut filiali Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti**Pedagogika va jismoniy madaniyat kafedrası o'qituvchisi*usarovamuborak5@gmail.com

+99894-770-79-20

Abduraxmanova Matluba Kamoliddin qizi*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti**Urgut filiali Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti**Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi***Abstract:**

In this article, raising children as well-rounded individuals is considered one of the most important tasks of the education system. Spiritual and moral education plays an important role in the formation of a child's personality, social relationships, and cultural behavior. In particular, the preschool period is one of the most important stages in human life, and the spiritual values and moral standards formed during this period affect the child's future personal and social success.

Абстрактный:

В данной статье воспитание детей как всесторонне развитых личностей рассматривается как одна из важнейших задач системы образования. Духовно-нравственное воспитание играет важную роль в формировании личности ребенка, социальных отношений и культурного поведения. В частности, дошкольный период является одним из важнейших этапов в жизни человека, а сформированные в этот период духовные ценности и моральные нормы влияют на будущую личностную и общественную успешность ребенка.

Annotatsiya:

Ushbu maqolada bolalarni har tomonlama barkamol shaxs sifatida tarbiyalash ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya bolaning shaxsiyati, ijtimoiy munosabatlari va madaniy xulq-atvorni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, maktabgacha yosh davri inson hayotidagi eng muhim bosqichlaridan biri bo'lib, bu davrda shakllangan ma'naviy qadriyatlar va axloqiy me'yorlar bolaning kelajakdagi shaxsiy va ijtimoiy muvaffaqiyatlariga ta'sir qiladi.

Keywords: Modern educator, pedagogical activity, knowledgeable, skilled, spiritual values, moral standards.

Ключевые слова: Современный педагог, педагогическая деятельность, знающий, умелый, духовные ценности, нравственные нормы.

Kalit soʻzlar: Zamonaviy tarbiyachi, pedagogik, faoliyat, bilimli, mahoratli, maʼnaviy qadriyatlar, axloqiy meʼyorlar.

Axloq kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyoti davomida vujudga kelib, tarkib topgan, takomillashib kelgan meʼyor va qoidalaridan iborat boʻlib, ular kishilarning jamiyatga boʻlgan munosabatlarini tartibga soladi. Bu meʼyor va tartib qoidalar kishilardan jamiyat uchun zarur boʻlgan axloqqa ega boʻlishlikni talab qiladi. Maʼnaviy-axloqiy tarbiya tizimida maʼnaviy-axloqiy his-tuygʻular inson tomonidan, uning voqea-hodisalar, kishilar hamda oʻz xulqiga nisbatan his-tuygʻularni uygʻotishga ragʻbat paydo qiluvchi tarbiyaviy ishlar tizimli tashkil etilgandagina samarali kechadi.

Maktabgacha tarbiya pedagogikasi maʼnaviy-axloqiy tarbiyani, maʼnaviy axloqiy ongini shakllantirish, bola hayotining dastlabki yillaridan boshlab uning maʼnaviy his-tuygʻulari va axloqiy fazilatlarini shakllantirish jarayoni deb hisoblaydi. Bolalar bogʻchasida bulawayo maʼnaviy tamoyillarga asoslangan boʻlib, maktabgacha yoshdagi bolalarning yoshiga qarab belgilanadi va Oʻzbekiston kelajagini barpo etuvchi fuqarolari uchun zarur boʻlgan maʼnaviy axloqiy fazilatlarining asoslarini shakllantirishdi. Maktabgacha tarbiya yoshi-bu shaxsning dastlabki “ochilish” davri. Maʼnaviy tarbiya ikki tomonlama jarayondir. Bir tomondan, bukattalar, ota-onalar, tarbiyachilarning fazilatlariga faol taʼsir koʻrsatadi. Ikkinchidan esa - bolalarning xatti-harakatlari, his tuygʻulari va munosabatlarida namoyon boʻladigan tarbiyaviy faoliyat. Shu sababli, tarbiya mazmunini belgilab olgach, turli xil maʼnaviy tarbiya uslublarini qoʻllash orqali ota-ona, tarbiyachi tarbiyaning natijalarini, bolalarning maʼnaviy barkamolligini diqqat bilan tahlil qilib borishlari kerak.

Maʼnaviy- axloqiy tarbiyaning mohiyati xulq-atvor, odob-axloq meʼyorlari va qoidalaridir. Ular bolalarning soʻzlar tushuntirishlari darker. Soʻzlarida, munosabatlarida, xatti-harakatlarida namoyon boʻladi, ularning xatti-harakatlari, munosabatlarini nazorat qiladi. Ota-onalar va tarbiyachilar maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash bu Oʻzbekistonning kelajagi, Vatanimizning boʻlajak posbonlarini, dunyoda yurtimiz sharafiga yuksaltiruvchi iqtisodiy, maʼnaviy hayotni barpo etuvchilarni tarbiya qilayotganlarni, buning maʼsulyatini yaxshi bilishlari kerak. Ushbu vazifaga muvofiq maktabgacha yoshdagi bolalarni maʼnaviy-axloqiy tarbiyalash boʻyicha ishlar takomillashtirishi kerak. Maktabgacha yoshda shakllantirilgan his-tuygʻular va xulq bolalar oʻrtasidagi, kattalar va bolalar oʻrtasidagi munosabatlarning butun majmuasiga taʼsir koʻrsatadi.

Komfutsiy bolalar bilan muntazam ish olib borish, bolalarning maʼnaviy axloqiy darajasini oshiradi; maktabgacha tarbiya tashkilotlarida oʻrgangan qobiliyatlarni rivojlantiradi va amalga oshirilgan ishlardan quvonadi, kattalar ishlarning natijalarini

qadrlaydi;ularda umumiy maanfatlari uchun ishtirok etish,birgalikda o'ynash,barcha maqsadlarni amalgaoshirish istagi paydo bo'ladi. Bularning barchasi bola shaxsiyatining ma'naviy yo'nalishinibelgilaydi. Bolalarda faol hayotiy pozitsiya asoslarini shakllantiradi.Bu juda muhimnatijabo'lib, keyinchalik maktab yoshidagi ma'naviy-axloqiy tarbiyani muvaffaqiyatli amalgaoshirishga imkon beradi. Har bir bolaning ma'naviyaxloqiy rivoji uchun g'amxo'rlik-bugungiva kelajak tarbiyachilarining kundalik e'tiborini talab qiladi. Bunda bola va bolalar jamoasinishakllantirish bir vaqtning o'zida birlashtiriladi. Ma'naviy-axloqiy tarbiyani amalga oshirishdatarbiyachi yetakchi rol o'ynaydi.Uning xulq-atvori, bolalar va kattalar bilanmunosabatibolalarga namuna-misol vazifasini o'taydi. Maktabgacha yoshdagi boalani ma'naviy axloqiy tarbiyalashni ota-onalar bolalar bog'chasibilan yaqin aloqada amalga oshirishlari kerak. Bolalar bog'chasi bolalar tarbiyasidaqiyinchiliklarga duch kelayotgan ota-onalarga alohida e'tibor berib, oilalarningbarchaqatlamlari pedagogic madaniyatini yuksaltirish, barcha ota-onalarni (va iloji bo'lsa,oilaningboshqa katta a'zolarini ham) peagogik madaniyat bilan qurollantirishi kerak.Bolalarnima'naviy tarbiyalash usullarini tanlash oldingi bolalik davrining har bir bosqichidagi asosiyvazifalarni hisobga olgan holda, ularni yoshiga xos xususiyatlaridan kelib chiqibamalgaoshiriladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy axloqiy tarbiyalashning asosiy vazifalari quyidagilar:

- madaniy xulq atvor malakalari,kompitensiyalarini rivojlantirish;
- insonparvarlikning ko'nikmalarini o'rgatish

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasining mazmuni va usullari ushbu yoshdagi bolalarning xususiyatlariga mos kelishi va eng yaqin axloqiy rivojlanish zonasini ta'minlashi kerak. Misol uchun, agar to'rt yoshli bola tengdoshlaridan yordam berishni asosan tarbiyachining maslahati, ta'siri, topshirig'i bilan bajarsa, besh yoshlilar bu yordamni o'z ixtiyori, farosati bilan ko'rsata olishi kerak. Tabiiyki, buning uchun tarbiyachi bolalarni ushbu yanada rivojlangan xatti-harakatga tayyorlashni oldindan amalga oshirib borishi kerak. Ma'naviy-axloqiy tarbiya-bu bolaning shaxsini jamiyatning maqsadlarini va g'oyalariga mosravishda rivojlanishi bilan pedagogik ta'sir qilish usuli. Bolalarda insonparvarlikni tarbiyalash uchun qo'llanayotgan tarbiya usullari insonparvar bo'lishi kerak. Jamoaviylikni rivojlantirish uchun bolalarda biror ishni bajarish istagi va qobiliyatini rivojlantirish birgalikla o'ynash. Harbir bolaga g'amxo'rlik qilish taqozo etiladigan va faoliyatni tashkil etish zarur.

Bolalarni tarbiyalash yakka usul yoki vositalar bilan amalga oshirilmaydi. Bunda turli xil tarbiya usullarining butun majmuasi qo'llaniladi. Ma'naviy axloqiy tarbiya usullarini shartli ravishda bir necha guruhlariga bo'lish mumkin: Birinchi guruh usullari bolalarning odatiy xatti-harakatlarini shakllantirishni ta'minlaydi. Ularga bola xulq-atvorining ijobiy shakllariga o'rgatish usullarini keltirish mumkin.Asosiy sababi

bolalar turli vaziyatlarda me'yorlar va qoidalarga muvofiq harakat qilishlari, masalan, salomlashish va kechirim so'rash, xizmat uchun minnatdorchilik bildirish, savollarga xushmuomalalik bilan javob berish, gullarni parvarish qilish, boshqa bolalarga yordam berish va o'zaro yordamlashish, keksalarga g'amxo'rlik qilish, kamtarlik o'rgatiladi. Bolaxatti-harakatlarining motivatsiyasi uning ongiga, histuyg'ulariga ta'sir qiladi. Shusabablimuntazam xulq harakatlarining shakllanishi uchun muntazam o'rgatib borish juda muhimdir. Mashg'ulotlar bolalarni turli xil amaliy tadbirlarga, tengdoshlari va kattalarga tabiiy hayot sharoitlarida va maxsus yaratilgan, maktabgacha yoshdagi bolalarni bunday harakatlarga jalb qilishni o'z ichiga oladi. Masalan, tarbiyachi yosh bolalarga mehmonlarni kutib olish, mehmon qilishni tavsiya qiladi. Bolalar bunday holatlarda o'z bilimlari va ko'nikmalarini namoyon qilishlari, ularga e'tibor berishlari, kichiklarga g'amxo'rlik qilishlari kerak. O'rgatish usuli kattalar yoki boshqa bolalarning namunasi bilan birlashtirilsa, kata ta'sir ko'rsatadi. Biroq, bolaning katta ishi yoki tengdoshi namunasi ko'ra harakat qilishi uchun, ularga o'shashni istashlarini so'rab, o'xshashga istakni kuchaytirish kerak. O'xshash orzusi taqlid orqali amalga oshiriladi. Agar bola biror kishi haqida to'liqlanib, hayrat bilangapirsa, bu uning o'sha kishi faoliyati, xarakteridan ta'sirlanganini anglatadi. Bolalar bog'chasining tarbiya dasturlarida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ularning yosh va individual psixik fiziologik xususiyatlariga moslab jismoniy, aqliy, ma'naviy-axloqiy, estetik tarbiya berish nazarda tutiladi. Buning uchun har bir maktabgacha tarbiya tashkilotining har bir ish guruhida tegishli sharoit yaratiladi, guruhda bolalar hayotini yo'lga qo'yish va ularni tarbiyalashda oilalarning normal turmushi hamda hayotini, xilma-xil faoliyatini, ularning sog'lig'ini muhofaza qilish va ma'naviy fazilatlarini tarbiyalashni yo'lga qo'yish nazarda tutiladi.

Maktabgacha tarbiya tashkiloti ozoda, shinam, keng bo'lib, guruhlar xonalari mebel, o'yinchoqlar, pedagogik qo'llanmalar, gigiyena, pedagogika va estetika talablariga javob beruvchi jihozlar bilan ta'minlanadi, ular bolalarning yoshlariga muvofiq bo'lishi, xonani jihozlash asbob-uskuna hamda buyumlari esa tasdiqlangan tipovoy jihozlashga mos bo'lishi lozim. Bolalarning ko'rish qobiliyatlarini saqlash maqsadida guruh xonalari turli darajada sun'iy va tabiiy tarzda yoritilishi lozim. Deraza pardalari va derazalarga qo'yilgan o'simliklar derazadan tushadigan yorug'likni kamaytirmasligi keraak. Shunday qilib, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalardagi harakterning ijobiy namunalari, ularning yosh xususiyatlarini e'tiborga olgan holda axloqiy tarbiyaning hamma samarali usullari bilan tarbiyalanib borilsa, ijobiy natijalarga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xudoyberganov Q.T., Nurmuxamedov T.R. va b. Xodimlar menejmenti. Darslik. // Toshkent. – 2010.

2. S.V.Yudakova Psixologo-pedagogicheskiye aspekty menedjmenta v sfere obrazovaniya. Uchebnoye posobiye. Vladimir 2020.
3. L.M.Bazavluskaya, D.N.Korneev Metodika prepodavaniya menedjmenta. uchebno-metodicheskoye posobiye. Chelyabinsk, 2019.
4. Loxtina T.N. Основы менеджмента образовательных организаций. Uchebnoye posobiye. Irkutsk 2019.
5. G‘oziyev E.G‘. Menejment psixologiyasi. // Toshkent. – 2001.
6. Abduraxmonov F.R., Abduraxmonova Z.E. O‘zingni bil, o‘zingni angla. // Toshkent. – 2013.
7. Xolbekov A.J. Boshqaruv sotsiologiyasi. // Toshkent. – “Akademiya”, 2008
8. Maxmudov I.I. Boshqaruv psixologiyasi. // Toshkent. – “Akademiya”. 2006
9. Abdurahmonov Q.H., Xolmo‘minov Sh.R., Zokirova N.Q. Personalni boshqarish. Darslik. – // Toshkent. – “O‘qituvchi”, 2008. 655 bet.
10. Imomov A. Shaxslararo munosabatlar psixologiyasi. // Toshkent. – “Navro‘z nashriyoti DUK”, 2016. 192 bet.
11. Mahmudov I.I., Qoraboev J. Rahbar shaxs psixodiagnostikasi. // Toshkent. — “Akademiya”, 2013. 120 bet.
12. Mahmudov I. Boshqaruv psixologiyasi. // Toshkent. – “YUNAKSPRINT”, 2006. 232 bet.
13. G‘oyibnazarov Sh. Ommaviy madaniyat. // Toshkent. – “O‘zbekiston”, 2012.
14. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida” 595-sonli Qonuni – 2019-yil 16-dekabr.